



**SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI**

**2021-2022 O'QUV YILI**

**IBNI SINA TIBBIYOT FAKULTETI VA MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR  
OLIV MAKTABIGA KIRISH IMTIHONLARINI O'TKAZISH,  
NOMZODLARNI SARALASH VA TAQSIMLASH  
BO'YICHA YO'RIQNOMA**

**Kontaktlarimiz:**

**Tel:**

+99891 647 87 04 (Jahongir Madjitov)  
+99894 217 71 71 (Ulugbek Yaxshimurodov)  
+99890 514 25 92 (Nargiza Abdullayeva)  
+99890 637 67 28 (Gulmira Atoyeva)

**Vebsahifa:** <http://www.sbu.edu.tr>

**Manzil:** Saęlık Bilimleri Üniversitesi / Öğrenci İşleri Daire Başkanlığı, Hamidiye Külliyesi, Selimiye Mah. Tıbbiye Cad. No:38, 24668 Üsküdar/İstanbul

**Manzil:** Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti / Morfologiya binosi / Xalqaro Turkiya fakulteti / A. Navoi ko'chasi 1 uy Buxoro shahri, 200118 / O'zbekiston

**SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETINING IBNI SINA TIBBIYOT  
FAKULTETI VA OLIY MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR MAKTABIGA  
HUJJAT TOPSHIRGAN ABITURIYENTLAR UCHUN KIRISH  
IMTIHONLARI VA SUHBAT O'TKAZISH SANALARI**

Hujjat topshirish	12-avgustdan 5-sentabrgacha
Hujjatlarni ko'rib chiqish	6-12 sentabr kunlari
Saralash imtihoni	13-sentabr
Saralash imtihoni natijalari va suhbatga kiradigan nomzodlar nomini e'lon qilish	17-sentabr
Suhbat jarayoni	18-24 sentabr kunlari
Suhbat natijalarini e'lon qilish	27-sentabrgacha
Yuqori ball to'plagan nomzodlarni talabalar safiga qabul qilish va kontrakt to'lovini amalga oshirish	28-sentabrdan 2-oktabrgacha
2021-2022 o'quv yilining boshlanishi	4-oktabr

## I. UMUMIY MA'LUMOT, ASOSIY TAMOYIL VA QOIDALAR

1. O'zbekiston Respublikasi (Buxoro)da Turkiya Respublikasi prezidentining 24.06.2019 dagi № 1157 sonli qarori bilan Sog'liq Bilimlari Universitetining Buxoro davlat tibbiyot instituti negizida tashkil etilgan Ibni Sina tibbiyot fakulteti "Davolash ishi" (6 yil) yo'nalishi bo'yicha tibbiyot xodimlarini tayyorlaydi.
2. O'zbekiston Respublikasi (Buxoro)da Turkiya Respublikasi prezidentining 17.04.2019 dagi № 968 sonli qarori bilan Sog'liq Bilimlari Universitetining Buxoro davlat tibbiyot instituti negizida tashkil etilgan Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabi "Anesteziologiya" (3 yil), "Fizioterapiya" (3 yil) va "Ilk shoshilinch yordam" (3 yil) yo'nalishlari bo'yicha tibbiyot xodimlarini tayyorlaydi.
3. Ushbu qo'llanma Sog'liq Bilimlari Universiteti Ibni Sina tibbiyot fakulteti va Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabiga 2021-2022 o'quv yili uchun hujjat topshirmoqchi bo'lgan abituriyentlar uchun mo'ljallangan.
4. Sog'liq Bilimlari Universitetining Buxoroda ochilgan Ibni Sina Tibbiyot fakultetining 2021-2022 o'quv yilidagi qabul kvotalari soni 80 ta bo'lib, undan 60 tasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun, qolgan 20 tasi esa Turkiy tilli davlatlar fuqarolari uchun ajratilgan.
5. Sog'liq Bilimlari Universitetining Buxoroda ochilgan Ibni Sina Malakali xizmatlar Oliy maktabining 2021-2022 o'quv yilidagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun uch yo'nalish bo'yicha mo'ljallangan qabul kvotalari soni jami 120 ta bo'lib, "Anesteziologiya", "Fizioterapiya" va "Ilk va shoshilinch yordam" yo'nalishlarining har biriga 40 tadan talaba qabul qilinadi.
6. Sog'liq Bilimlari Universitetining Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabiga 2021-2022 o'quv yilida talabalikka qabul yozma imtihon va suhbat asosida amalga oshiriladi. **Hujjatlar joriy yilning 12-avgustidan 5-sentabrgacha <https://basvuru.sbu.edu.tr> sayti orqali onlayn tarzda qabul qilinadi.**
7. Sog'liq Bilimlari Universitetining Ibni Sina tibbiyot fakultetiga 2021-2022 o'quv yilida talabalikka qabul **yoza imtihon va suhbat asosida** qabul komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Hujjatlar joriy yilning 12-avgustidan 5-sentabrgacha <https://basvuru.sbu.edu.tr> sayti orqali onlayn tarzda qabul qilinadi.
8. Universitetga kirish imtihonlari **Buxoroda 2021-yilning 13-sentabr** kuni bo'lib o'tadi (imtihonning aniq vaqti keyinroq e'lon qilinadi).

9. Sog'liq Bilimlari Universitetining Ibni Sina tibbiyot fakulteti va Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabiga kirish imtihonlari O'zbekistonda yashovchilar uchun **yozma imtihon va suhbatdan** iborat. Suhbat yozma imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng **joriy yilning 18-24 sentabr** kunlari Toshkent vaqti bilan **soat 10:00-17:00 da yuzma-yuz** olib boriladi. Zarurat tug'ilganda (fors-major holatlarda) suhbat onlayn tarzida o'tkazilishi mumkin.

10. Sog'liq Bilimlari Universitetining:

- Ibni Sina Tibbiyot fakultetining 2021-2022 o'quv yilidagi qabul kvotalari: 80 (sakson) ta asosiy va 40 (qirq) ta zahira;
- Ibni Sina Malakali xizmatlar Oliy maktabining 2021-2022 o'quv yilidagi qabul kvotalari soni: "Anesteziologiya", "Fizioterapiya" va "Ilk va shoshilinch yordam" yo'nalishlari bo'yicha jami 120 (bir yuz yigirma) ta asosiy, 60 (oltmish) ta zahira;

11. Sog'liq Bilimlari Universitetining Ibni Sina tibbiyot fakultetiga va Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabiga kirish imtihoni natijalari faqat 2021-2022 o'quv yili uchun amal qilib, keyingi o'quv yillarida ariza topshirishda inobatga olinmaydi.

12. Universitet va abituriyentlar o'rtasidagi aloqa o'zbek, turk, rus va ingliz tillarida olib boriladi.

13. Sog'liq Bilimlari Universitetining Ibni Sina tibbiyot fakulteti va Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabiga 2021-2022 o'quv yilida ariza topshirmoqchi bo'lgan nomzodlar **10 (o'n) AQSh dollari miqdoridagi to'lovni yoki unga teng summani o'zbek so'mida Buxoro davlat tibbiyot instituti hisob raqamiga to'lashlari shart.**

14. Imtihonga keladigan abituriyentlar o'zlari bilan fuqarolik passporti yoki unga tenglashtirilgan boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjatni va imtihonga kirish ruxsatnomasini olib kelishlari kerak.

15. Yozma imtihondan o'tolmagan abituriyentlar suhbatga kiritilmaydi.

16. Abituriyentlarning Sog'liq bilimlari universiteti tomonidan o'tkaziladigan kirish imtihonlaridan olgan ballari faqatgina Ibni Sina tibbiyot fakulteti va Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabiga kirish uchun amal qilib, universitetning boshqa fakultetlariga kirishda kuchga ega emas.

## II. HUJJAT TOPSHIRISH JARAYONI

1. Sog'liq Bilimlari Universitetining Ibni Sina tibbiyot fakulteti va Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabiga 2021-2022 o'quv yilida hujjat topshirish qabul bo'yicha tayyorlangan yo'riqnomadagi muddatlarda, <https://basvuru.sbu.edu.tr/> sayti orqali onlayn tarzda amalga oshiriladi.

2. <https://basvuru.sbu.edu.tr/> sayti orqali hujjat topshirmagan abituriyentlarning arizalari ko'rib chiqilmaydi. Onlayn ariza topshirish davomida talab qilinadigan hujjatlar ro'yxati:

- Fuqarolikni tasdiqlovchi hujjat yoki pasport;
- O'rta umumta'lim maktabini tugatganligini tasdiqlovchi maktab attestati yoki kollej, akademik litsey diplomlari va ularning ilovalari (hamma sahifalari sifatli PDF formatda skaner qilinib, saytga yuklanishi kerak);
- Rasm (hajmi 500 kB gacha bo'lgan JPG yoki PDF formatidagi elektron rasm);
- Hujjat topshirish amalga oshirilgan to'lovni tasdiqlovchi kvitansiya;

*Eslatma: hamma hujjatlarning elektron shakllari hajmi 500 kB dan oshmasligi shart. Aks holda Sistema hujjatlarni qabul qilmaydi.*

3. 2021-2022 o'quv yilida Sog'liq Bilimlari Universitetining Ibni Sina tibbiyot fakultetiga **O'zbekistan Respublikasi hamda Turkiy tilli davlatlar fuqarolari** ariza topshirishlari mumkin.

4. 2021-2022 o'quv yilida Sog'liq Bilimlari Universitetining Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabiga **faqatgina O'zbekistan Respublikasi fuqarolari** ariza topshirishlari mumkin.

5. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan, keyinchalik Turkiya fuqaroligini olgan yoki ikkala davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslarga Ibni Sina tibbiyot fakulteti va Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabiga hujjat topshirishga ruxsat berilmaydi.

6. Turkiyaning istalgan Oliy o'quv yurtida ro'yxatdan o'tgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga Ibni Sina tibbiyot fakulteti va Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabiga hujjat topshirishga **ruxsat berilmaydi. Agar yuqorida nazarda tutilgan abituriyentlar hujjat topshiradigan bo'lsalar, ularning arizalari haqiqiy hisoblanmaydi. Mabodo yuqorida nazarda tutilgan abituriyentlar qaysidir programmada tahsil olayotgan bo'lsa, ular talabalar safidan chetlashtiriladi.**

7. Onlayn ariza topshirish jarayonida taqdim qilingan hujjatlarning noaniqligi yoki xatoligi oqibatida kelib chiqadigan muammoli holatlarda abituriyentlarning

shaxsan o'zlari javobgar bo'ladi. Hujjat topshirish paytida abituriyentning shaxsiy ma'lumotlari kiritilishi lozim bo'lgan joylar fuqarolik pasportiga muvofiq, o'zgarishlarsiz va qisqartirishlarsiz yozilishi kerak.

**8. Onlayn ariza topshirish paytida zarur bo'lgan elektron pochta manzili va telefon raqami abituriyentga tegishli bo'lishi shart va har bir nomzod faqatgina bitta elektron pochtdan foydalanishi mumkin. Berilgan manzil bo'yicha boshqa nomzodlarning nomidan qanaqadir amaliyotlarni bajarish mumkin emas.**

9. Agar o'rta maktabni tugatganlik haqidagi attestat yoki kollej, akademik litseylarning diplomi o'zbek, turk, rus yoki ingliz tillarida bo'lmasa, ularni tarjima qilish va notarial tasdiqlatish kerak bo'ladi.

**10. Onlayn ariza topshirishda saytdagi rasm uchun ajratilgan joyga abituriyentning oxirgi 6 oy davomida tushgan rasmi yuklanishi kerak. Nomzod imtihon kunida osonlik bilan tanib olinishi uchun sifatli rasm yuklanishi shart. Imtihon komissiyasi rahbari, abituriyentni rasmiga qarab tanib ololmaganda, uni imtihondan chetlashtirish yoki imtihonga kirgizmaslik huquqiga ega.**

11. Abituriyentlarga suhbatga kirish ruxsatnomasi Sog'liq bilimlari universitetining talabalarni qabul qilish va taqsimlash bo'yicha tashkil etilgan komissiyasi tomonidan beriladi.

### **III. ARIZA TOPSHIRISH VA RO'YXATDAN O'TISH UCHUN TO'LOVNI AMALGA OSHIRISH**

**1. Sog'liq bilimlari universitetining kirish imtihonlarida ishtirok etish uchun ariza topshirgan nomzodlar ro'yxatdan o'tish uchun Buxoro davlat tibbiyot instituti hisob raqamiga to'lanadigan 10 (o'n) AQSh dollari yoki unga teng bo'lgan summani o'zbek so'mida amalga oshirganligini tasdiqlovchi kvitansiya sistemaga yuklashlari shart.**

**2. Sog'liq bilimlari universitetining kirish imtihonlarida ishtirok etish uchun ariza topshirgan nomzodlar ro'yxatdan o'tish uchun amalga oshirgan to'lovlari abituriyent yozma imtihondan o'tolmagan yoki suhbatga kirolmagan holatlarda ariza topshiruvchiga qaytarilmaydi.**

**3. Abituriyent no'to'g'ri ma'lumot bergan holatlarda uning arizasi haqiqiy deb hisoblanmaydi va to'lov puli qaytarilmaydi.**

**4. Abituriyent kirish imtihonlari natijalariga asosan talaba bo'lish huquqini qo'lga**

kiritsa va talabalar safiga qabul qilinsa, ammo keyinchalik o'qishdan bosh tortsa, unga **to'lov puli qaytarilmaydi.**

5. Talabalar safiga qabul qilinish huquqini qo'lga kiritgan abituriyentlar, o'z yo'nalishlaridan kelib chiqib kontrakt to'lovini quyida keltirilgan tamoyillar asosida belgilangan muddat ichida to'lashlari shart:

**Ibni Sina tibbiyot fakultetida o'qish narxi:**

**“Davolash ishi” yo'nalishida bir yillik kontrakt to'lovi miqdori 3000 (uch ming) AQSh dollari miqdorida;**

**Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabida o'qish narxi:**

**“Anesteziologiya”, “Fizioterapiya” va “Ilk va shoshilinch yordam” yo'nalishlarida bir yillik kontrakt to'lovi miqdori 1350 (bir ming uch yuz ellik) AQSh dollari miqdorida;**

Bank nomi: G'aznachilik Markaziy Bank BBXKKM Toshkent shahri

- IBAN:  
So'mdagi hisob raqami: 400110860064017094100054001  
Dollardagi hisob raqami: 400910840064017094100054001  
Yevrodagi hisob raqami: 400910978064017094100054001
- SWIFT-kodi: CBUZUZ22
- Oluvchi: Buxoro davlat tibbiyot instituti
- To'lov maqsadi: nomzodning ismi va familiyasi
- **To'lovni amalga oshirish paytida “To'lov maqsadi” degan joyga abituriyentning ism-familiyasini yozishni unutmang!**
- To'lov kontrakti amalga oshirilganligi haqidagi kvitansiya, abituriyentlarni talabalar safiga qabul qilungunga qadar Buxoro davlat tibbiyot institutining Talabalarni ro'yxatdan o'tkazish bo'limiga taqdim etilishi kerak.
- Talabalik safiga qabul qilinish huquqini qo'lga kiritgan abituriyentlar to'lov kontraktini butun O'zbekiston yoki Buxoro viloyati bo'ylab joylashgan banklarda amalga oshirishlari mumkin.

#### **IV. O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDAN TURIB KIRISH IMTIHONLARIDA QATNASHISH UCHUN TO'LOVNI AMALGA OSHIRMOQCHI BO'LGAN ABITURIYENTLAR DIQQAT QILISHI LOZIM BO'LGAN ALOHIDA HOLATLAR**

1. Imtihon topshirish uchun to'langan pul, to'lovni qabul qiluvchi tashkilot hisob raqamiga kelib tushgandan keyingina, to'lov haqiqatdan amalga oshirilgan deb

hisoblanadi.

2. Kontrakt to'lovini to'lash maqsadida maxsus chek, konvertda pul va shu kabilarni taqdim qilish qat'iyon taqiqlanadi.
3. To'lov amalga oshirilayotgan bank tomonidan undiriladigan xizmat ko'rsatish haqi kontrakt to'lovi ichiga kirmaydi.
4. To'lov kontraktini amalga oshirmagan abituriyentlar to'lovni amalga oshirmaganlariga qadar talabalar safiga qabul qilinmaydi.
5. To'lovni amalga oshirgan nomzodlar bankni tark etmasdan turib, ularga taqdim qilingan kvitansiyalarni tekshirishlari so'raladi. Xatolik aniqlangan holatlarda bank xodimidan ularni tuzatishni so'rash shart.

#### **V. SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETIGA KIRISH IMTIHONLARIDA ISHTIROK ETISH UCHUN KELIB TUSHGAN ARIZALARNI DASTLABKI KO'ZDAN KECHIRISH TARTIBI**

1. Nomzodning talablarga mos ekanligi Sog'liq bilimlari universitetining talabalarini tanlash va taqsimlash bo'yicha Komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.
2. Arizalarni ko'rib chiqish va talabalikka qabul qilish to'liq Sog'liq bilimlari universiteti tomonidan amalga oshiriladi. Sog'liq bilimlari universiteti kvotalarni o'z ixtiyoriga binoan to'ldirish yoki to'ldirmaslik huquqiga ega.
3. Ariza topshirish uchun talab qilingan hamma hujjatlar tegishli organlar tomonidan tasdiqlangan bo'lishi shart.
4. Hujjatlarni dastlabki saralash natijalariga ko'ra yozma imtihonda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan nomzodlar ro'yxati <https://basvuru.sbu.edu.tr> saytida e'lon qilinadi.

#### **VI. SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI IBNI SINA TIBBIYOT FAKULTETI VA MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR OLIY MAKTABIGA KIRISH IMTIHONLARINI O'TKAZISH TARTIBI**

1. Kirish imtihonlarida ishtirok etish uchun topshirilgan arizalar Sog'liq bilimlari universitetining talabalarni qabul qilishva taqsimlash bo'yicha Komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Tekshirish jarayonida zarur bo'lgan hujjatlarning mavjudligi/mavjud emasligi tekshiriladi. Hujjatlarni ko'zdan kechirish natijalariga ko'ra kirish imtihonlariga qatnashish huquqini qo'lga kiritgan



nomzodlar imtihon kunida o'zlari bilan **passport yoki unga tenglashtirilgan shaxsni tasdiqlovchi** boshqa hujjatlarni olib kelishlari kerak.

2. Sog'liq bilimlari universitetiga kirish imtihonlari 2021-yilning 13-sentabr kuni Buxoroda bo'lib o'tadi (imtihonning aniq vaqti keyinroq e'lon qilinadi).

3. Yozma imtihon test shaklida o'tkazilib, 90 savolni o'z ichiga oladi va imtihon uchun 150 (bir yuz ellik) minut vaqt beriladi.

4. Yozma imtihon savollari matematika, kimyo va biologiya fanlari bo'yicha bo'lib, har bir fandan 30 tadan savol beriladi.

5. Yozma imtihon test shaklida bo'lib, har bir savolda 5 ta variant mavjud va ulardan faqat bittasi to'g'ri javob bo'ladi. Abituriyent o'zi tanlagan javob variantini unga taqdim qilinadigan imtihon bukletiga va optik blankaga (javoblar varaqasiga) belgilashi kerak.

6. Javoblar varaqasida abituriyent tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan xatolarni kamaytirish maqsadida, imtihon boshlanishidan oldin, ekzaminatorlar tomonidan javoblar varaqasini qanday to'ldirish tartibi tushuntiriladi.

## **VII. SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI IBNI SINA TIBBIYOT FAKULTETI VA MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR OLIY MAKTABIDA SUHBAT O'TKAZISH TARTIBI**

1. Nomzodlar bilan suhbat Sog'liq bilimlari universitetining talabalarni qabul qilish va taqsimlash bo'yicha Komissiyasi tomonidan yozma imtihon natijalariga asoslangan holda o'tkaziladi. Suhbatga har bir yo'nalish uchun ajratilgan kvotalar sonidan 3 barobar ortiq nomzodlar ularning yozma imtihondan to'plagan ballari kamayish tartibida taklif qilinadi. Suhbatga kiritiladigan nomzodlar ro'yxati <https://basvuru.sbu.edu.tr> saytida e'lon qilinadi. Suhbatga keladigan nomzodlar o'zlari bilan **passport yoki unga tenglashtirilgan shaxsni tasdiqlovchi** boshqa hujjatlarni olib kelishlari shart.

2. Suhbat 2021-yilning 18-24 kunlari Buxoroda Toshkent vaqti bilan soat 10:00-17:00 da o'tkaziladi.

## **VIII. SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI IBNI SINA TIBBIYOT FAKULTETI VA MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR OLIY MAKTABIGA KIRISH IMTIHONI NATIJALARINI BAHOLASH TARTIBI**

1. Nomzodlarning umumiy balli yozma imtihon natijasining 60%, attestat yoki diplom ballining 20% va suhbatda qo'yiladigan bahoning 20% qo'shish orqali

aniqlanadi. Ballar teng bo'lgan holatlarda, nomzodning tug'ilgan yiliga e'tibor qaratiladi va nomzodlardan yosh bo'yicha kichikrog'i tanlanadi.

2. Kirish imtihoni natijalari <https://basvuru.sbu.edu.tr> saytida e'lon qilinadi.

3. Sog'liq bilimlari universiteti Ibni Sina tibbiyot fakulteti va Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabi talabalari safiga qabul e'lon qilingan ro'yxatdagi nomzodlarning reytingiga muvofiq amalga oshiriladi.

## **IX. SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI IBNI SINA TIBBIYOT FAKULTETI VA MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR OLIY MAKTABINING 2021-2022 O'QUV YILIDAGI QABUL KVOTALARI**

1. Sog'liq Bilimlari Universiteti Ibni Sina tibbiyot fakultetining 2021-2022 o'quv yilidagi qabul kvotalari soni 80 (sakson) ta va Ibni Sina Malakali xizmatlar Oliy maktabining 2021-2022 o'quv yilidagi qabul kvotalari soni uch yo'nalish bo'yicha jami 120 (bir yuz yigirma) ta bo'lib, "Anesteziologiya", "Fizioterapiya" va "Ilk va shoshilinch yordam" yo'nalishlariga 40 tadan talaba qabul qilinadi.

## **X. YO'NALISHLAR BO'YICHA YILLIK KONTRAKT TO'LOVI MIQDORI**

**Ibni Sina tibbiyot fakultetida o'qish narxi:**

- **"Davolash ishi" yo'nalishida bir yillik kontrakt to'lovi miqdori 3000 (uch ming) AQSh dollarini tashkil etadi;**

**Ibni Sina Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabida o'qish narxi:**

- **"Anesteziologiya", "Fizioterapiya" va "Ilk va shoshilinch yordam" yo'nalishlarida bir yillik kontrakt to'lovi miqdori 1350 (bir ming uch yuz ellik) AQSh dollarini tashkil etadi;**

## **XI. NOMZODLARNI TALABALIKKA QABUL QILISH**

1. Sog'liq bilimlari universiteti Ibni Sina tibbiyot fakulteti va Malakali tibbiy xizmatlar Oliy maktabi talabalari safiga qabul yozma imtihon natijasining 60%, attestat yoki diplom ballining 20% va suhbatda qo'yiladigan bahoning 20% qo'shish orqali aniqlangan nomzodlarning umumiy ballariga muvofiq amalga oshiriladi.

2. Arizalarni ko'rib chiqish va talabalikka qabul qilish to'liq Sog'liq bilimlari universiteti tomonidan amalga oshiriladi. Sog'liq bilimlari universiteti kvotalarni o'z ixtiyoriga binoan to'ldirish yoki to'ldirmaslik huquqiga ega. Qabul qilingan arizalarning talablarga mos kelishi talabalikka qabul qilinish kafolatini bermaydi.

3. Nomzodlar faqat birgina yo'nalishga talabalikka qabul qilinadi.
4. Talabalikka qabul qilish natijalari talabalarni qabul qilish va taqsimlash bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatilgan muddatlarda universitetning <https://basvuru.sbu.edu.tr> sayti orqali e'lon qilinadi.

## **XII. TALABALIKKA QABUL QILISH UCHUN ZARUR BO'LGAN HUJJATLAR**

1. Maktab, kollej yoki akademik litseylar tomonidan berilgan original diplom;
2. Bizning universitet tomonidan o'tkazilgan kirish imtihoni va suhbat natijalari ko'rsatilgan hujjat nusxasi;
3. Oltita 4.5x6 sm o'lchamdagi rasm (nomzodni oson tanib olish maqsadida rasm oxirgi olti oy davomida tushilgan bo'lishi shart);
4. To'lov kontrakti to'langanligini tasdiqlovchi kvitansiyaning asli;
5. Hujjat topshirish va talabalikka qabul qilish jarayonida yo'lg'on ariza topshirgan, qalbakilashtirilgan, soxta, noto'liq yoki noto'g'ri hujjatlarni taqdim etgan nomzodlarning arizalari rad etiladi. Yuqoridagi holatlar aniqlangan holatlarda, talabalikka qabul qilingan nomzodlar ularning qaysi semestrda o'qishlaridan qat'iy nazar talabalar safidan chetlashtiriladi. Undan tashqari, ushbu holatlarni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan tartibda jinoiy ish qo'zg'atiladi.

**XIII. SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI IBNI SINA TIBBIYOT  
FAKULTETIGA 2021-2022 O'QUV YILIDA ABITURIYENTLARNI  
TALABALIKKA QABUL QILISH JARAYONIDA ULARNING  
UMUMIY BALLARINI HISOBLASH TARTIBI**

<b>Sinov turi</b>	<b>Sinov ballidan olinadigan foiz miqdori</b>	<b>Sinov turi</b>	<b>Sinov ballidan olinadigan foiz miqdori</b>	<b>Sinov turi</b>	<b>Sinov ballidan olinadigan foiz miqdori</b>	<b>Umumiy ball</b>
Yozma imtihon	<b>60%</b>	Attestat yoki diplom o'rtacha o'rtacha balli	<b>20%</b>	Suhbat	<b>20%</b>	<b>100</b>

**XIV. SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI IBNI SINA MALAKALI  
TIBBIY XIZMATLAR OLIY MAKTABIGA 2021-2022 O'QUV YILIDA  
ABITURIYENTLARNI TALABALIKKA QABUL QILISH  
JARAYONIDA ULARNING UMUMIY BALLARINI  
HISOBLASH TARTIBI**

<b>Sinov turi</b>	<b>Sinov ballidan olinadigan foiz miqdori</b>	<b>Sinov turi</b>	<b>Sinov ballidan olinadigan foiz miqdori</b>	<b>Sinov turi</b>	<b>Sinov ballidan olinadigan foiz miqdori</b>	<b>Umumiy ball</b>
Yozma imtihon	<b>60%</b>	Attestat yoki diplom o'rtacha o'rtacha balli	<b>20%</b>	Suhbat	<b>20%</b>	<b>100</b>